



O'SMIRLIK DAVRIDAGI AGRESSIV XULQ ATVOR PSIXOKORREKSIYASI VA UNING PROFILAKTIKASI

Abduraxmanova Feruza Jaxongirovna

Namangan olimpiya va paralimpiya sport
turlariga tayyorlash markazi psixologi

Annotatsiya Ushbu maqolada o'smirlik davridagi agressiv xulq atvorning kuchayib borayotgani va uni oldini olishning o'ziga xos psixologik usul va vositalari, agressiv xulq atvor psixokorreksiya, o'smir yoshidagi bolalar bilan o'zaro munosabatlar, fikrlar va his tuyg'ularini adekvat o'rnatish psixokorreksion mashg'ulotlar haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: individual xususiyatlar, moslashuvchanlik, teng huquqlilik, umuminsoniy qadriyatlar, his-tuyg'ular, agressiv xulq atvor, qat'iyat, irodaviy sifatlar, yosh hususiyatlari, samarali harakat.

Kirish. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi kelajak uchun mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro bo'lib, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlaydi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi. Yuqoridagi holatlardan ma'lum bo'ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi. Agar oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa,



bolani tinchlantira olsa, muloqotga mehribonlik, g'amxo'rlikni kiritisa, shu asosida unda agressivlikni yengib o'tishga imkoniyat yaratadi. Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishlash qiyin jarayon. Sababi ularga avvalo agressiya keltirib chiqargan yoki oilada soglom muhit shakllantira olmagan, yoki bolaning stress olishi mumkin bo'lgan holatlardan himoya qila olmaganligini tushuntira bilish kerak. Shuning uchun psixolog iloji boricha ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishi kerak. Agressivlikdan qutulish uchun ham ishni ota-onadan boshlash lozim. Xulq-atvorida o'zgarishlar kuzatilgan bolalar bilan ishlash jarayoni o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Agressiv bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan usul – hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiiy usulidir.

Asosiy qism. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdagi yoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Ma'lumki, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari, eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarini bartaraf etishni taqazo qiladi. Kuzatishlar va tadqiqotlarimizdan namoyon bo'lishicha voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-xodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli jarayon bo'lib xisoblanadi. Bu jarayonda o'smirlar subyekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va ishlaydi. Obyekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga tasir etuvchi element sifatida ifodalaydi. Subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro tasirlar munosibligini taminlash esa voyaga yetmagan o'quvchilarda xulq og'ishini kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi. O'smir yoshdagi o'quvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba'zan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmish tarzini belgilasa, bazan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun



imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'quvchilarda g'ayriqonuniy xulq-atvor kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jixatdan tasirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o'quvchining individual psixologik xususiyatlarni hisobga olgan xolda olib borishni toqozo qiladi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda, eng avvalo, jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik, individual psixologik, sotsiologik, xududiy va kriminologik xususiyatlarni hisobga olish talab e'tiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan qonunbuzarliklarning oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Maxsus individual xarakterdagi tadbirlar sifati bolalar va o'smirlarning shaxs xususiyatlari, ularning psixologiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlar oriyentasiyasi, xayotiy pozisiyasi, onglilik darajasi va ishtimoiylashuv xususiyatlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash tushuniladi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai - bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar, o'smir yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop, badiiy, publitsistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'smirlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan, o'tgan yillardek "haqqoniylik bu hammaga bir xil emas, balki har kimning imkoniyatiga harab va hammaning ishiga yoki inson manfaatlariga qo'shgan hissasiga qarab belgilanadi", deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib, juda ko'p o'smirlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum axloq normalari qat'iylashgan xususiyatlariga ega bo'ladilar. O'smirlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. O'smir yoshlardagi agressivlikni bartaraf etishni, ya'ni korreksiya qilishni,



uning sabablarini, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim. Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etiladi. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Agressiyani bartaraf etishda o‘yindan foydalanish, yangi ijtimoiy yondashishni tatbiq etish.
2. Bolaning agressiv hatti-harakatlarini ijobiy va pozitiv hatti harakatlarga o‘zgartirish (bolaga agressiyani ko‘rsatishga yo‘l qo‘ymaslik).

Korreksion ishlar faqat bola bilan emas, balki parallel ravishda ota-onalar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Farzandlar har doim uni yaxshi ko‘rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga kerakligini his qilishi darkor. Agressiv bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning vazifalari:

O‘smirlarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quyidagilarni bajarishni tavsiya qilinadi: -yostiq bilan kurashish; jismoniy harakatli o‘yinlardan foydalanish; qog‘oz yirtish; urishgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash; “hayqiriq xaltachasidan” foydalanish; psixo-gimnastika bilan shug‘ullanish; ertakterapiya, izoterapiya (loy, suv bilan ishlash), artterapiya, musiqaterapiya, animalterapiya – uy hayvonlaridan foydalanish. Yuqoridagi mashqlarni bolaning xarakter xususiyati va vaziyatidan kelib chiqib tavsiya qilinadi. Agressiv bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

“Ayiqlashga ezgu so‘zlarni ayt”

O‘yinning maqsadi: bolalarda o‘z-o‘zini baholashni oshirishga yordam berish, bir-birlariga maqtov so‘zlarini izhor qilishga, e‘tiborli bo‘lishga o‘rgatish. Kerakli jihozlar: koptok, o‘yinchoq ayiqcha.

O‘yinning borishi: Trener va bolalar doira shaklida o‘tiradilar, Trenerning qo‘lida koptok bo‘ladi. Trener va bolalar koptokni bir-birlariga uzatib, odamlarda qanday yaxshi xususiyatlar bo‘lishini esga olishadi. So‘ngra Trener o‘yinga o‘yinchoq ayiqchani taklif etadi. Bolalar unga quyidagi so‘zlarni aytishadi: “Sen – ... (yaxshisan, quvnoqsan,



tirishqoqsan)”. Soʻngra navbati bilan har bir bola “ayiqchaga aylanishadi” (oʻyinchoqni qoʻlda ushlab turadi), qolgan bolalar ayiqcha rolidagi bolaga ezgu soʻzlarni aytadilar. Oʻyin shu tarzda davom etadi.

Bunday korreksion oʻyinlarni bir nechtasini misol qilib keltirish mumkin. Oʻquvchilardagi agressivlikni bartaraf etishda pedagoglarning vazifalari: oʻzining negativ hissiyotlarini nazorat qilishlari; bolaning oʻz his-tuygʻulari, kechinmalari haqida suhbatlashish; oʻquvchining “ichki dunyosiga” quloq solish; bola shaxsini baholamaslik, shunchaki salbiy xatti-harakatlarining oqibatlarini tushuntirish.

Agressiv xulq atvorli oʻsmirlarning ota-onalariga maslahatlar:

- farzandingiz bilan birga oʻynang, farzandingiz negativ hissiyotlarini oʻyin orqali chiqarib yuborsin.
- bolaga agressiv harakatlarining oqibatlarini bosiqlik bilan tushuntiring, agressiv harakatlariga nisbatan javobgarlikni sezishga koʻmaklashing;
- farzandingizni kamsitmang, haqorat qilmang;
- uning yutuqlarini, ijobiy xislatlarini ayting;
- bolaga haddan tashqari koʻp toʻsiqlar qoʻymang, ovozingizni balandlatmang;
- vaziyatni nazorat qilishga harakat qiling, vaziyatni tinch ohang bilan tushuntiring;
- jismoniy jazo qoʻllamang;
- farzandingizni yaxshi koʻrishingizni aytib turing, mehrli nigohlaringizni, shirin soʻzlaringizni ayamang;
- atrofdagilarga gʻamxoʻrlik qilishga imkon yaratib bering;
- bolangizga eʼtiborliroq boʻling, uning emotsional qoʻrquvini his qiling;
- farzandingizni eshitishni oʻrganing, qiziqtirgan savollarga javob bering;
- oiladagi agressiv munosabatlarga barham berishga harakat qiling.

Xulosa qilib aytganda “Qush uyasida koʻrganini qiladi”, deb bejiz aytishmagan, farzand oiladagi munosabatlardan aksidir. Qachonki ota-ona oʻz hatti harakat va munosabatlarini toʻgʻri yoʻlga qoʻya olsagina bolalardagi agressiv xulq-atvor yaxshi tomonga oʻzgaradi.



Ota-onalar bilan ishlash, ularga ezgu maqsadimizni qay tarzda yoritib berish esa psixologning mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Slovar`, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil
- 2) Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.
- 3) Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, "O'qituvchi nashriyoti" – Toshkent, 1975.
- 4) V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.